


JADIDCHILIK HARAKATI MA'RIFATLI VA BARKAMOL AVLOD
TARBIYASI MASALALARI

Andijon davlat chet tillar instituti

Olimjonova MoxinurIlmiy maslahatchi:**Raupova M.I**

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadidlar kelajak avlodning barkamolligini va tarbiyasini yetuk bo'lishi uchun harakatlari haqida ma'limot berilgan.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, sho'ro, mafkura, marifat, marifatparvarlik.

Bizga ma'lumki, o'z faoliyatini nafaqat siyosiy, balki ta'lim va tarbiyani yuksaltirish, turkiston o'lkasini ma'naviy hamda ma'rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan jadidlar harakati o'lka xalqlari tarixida muhim ro'l o'ynagan. Aslida jadid so'zi (arabcha "jadid"-yangi) yangilanish ma'nosini anglatib, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullarini jamiyatga tadbiq etishdan iborat ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakat, shu oqim tarafdarlarining umumiyl nomi. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr birinchi choragida Turkistondagi milliy-ozodlik harakatining milliy mafkurasi, o'lka xalqlarining milliy mustaqillik va ma'rifatparvarlik g'oyasi sifatida shakllandi.

Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha jadid-yangi) XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat. Jadidchilik dastlab, XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga kelgan. XIX asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoda ham tarqaldi. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoil Gaspirali rahbarligida qrim tatarlar o'rtasida vujudga kelgan. Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini *taraqqiyatparvarlar*, keyinchalik *jadidlar* deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyatparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyorilar mahalliy aholining umumjahon



taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rtga bo'lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895–1905; 1906–1916; 1917–1920; 1921–1929-yillarni o'z ichiga oladi. Birinchi davrda Turkistonda podsho Rossiyasining mustahkam o'rashib olishi kuzatiladi. U o'z siyosiy agentlari (vakillari) yordamida mahalliy xon va amir vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qo'g'irchoqqa aylantirib, rus va g'arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini ko'zlaydi. Ayni chog'da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo'yildi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlari bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo'lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo'rlik, ijtimoiy-siyosiyadolatsizlik avj oldi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar bo'yniga xoch taqtirishgacha borildi. O'sha davr ahvolini Muhammadali xalfa Sobir o'g'li (Dukchi eshon) xalqqa qarata o'z „Xitobnama“sida (1898) yaxshi bayon qilgan. Millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mayjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish – siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o'ziga qulay zamin topdi. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o'z vatanlarini mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lida kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo'nalishlar ustuvor edi:yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy

demokratik davlat qurish. Turkiston jadidlari bilan Buxoro va Xiva jadidlari o‘rtasida bir muncha tafovut bor. Turkiston o‘lkasidagi jadidchilikning ijtimoiy asosini ziyolilar tashkil qildi. Ular Chor Rossiyasi mustamlakachiliga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, chorizmning xomashyo manbaiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor, so‘ng mustaqil davlat bo‘lishini yoqlab chiqdilar. Buxorodagi jadidchilik Turkistondagiga nisbatan og‘ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi asosan Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyat parvar qismi: ziyolilar, mullalar, mayda do‘kondorlar va ma’murlar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi. Jadidlarning dehqonlar va askarlar o‘rtasida nufuzi avvaliga past bo‘lgan. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishdi. Ular dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo‘lishdi. Buxoroda vobkentlik dehqon Jo‘raboy ilk yangi usul maktabini ochgan edi. Buxorodagi jadidchilik harakatiga ayrim johil mullalar, har qanday yangilik va islohotlarning dushmani bo‘lgan qadimchilar oqimi qarshi chiqdi. XX asr boshlarida Buxoro jamiyatni 2 guruhga: Ikrom domla rahbarligidagi taraqqiyat parvarlar va Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimchilarga bo‘lingan edi. 1908-yil „Buxoroi sharif shirkati“ tuzilib, darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug‘ullandi. Ushbu insonlar shirkatning tashkilotchilari edi:

Ahmad Hamdiy (Abusaidov)

Usmobxo’ja Po’latxo’jayev

Homidxo’ja Mehriy, Abdulvohid Burhonov

Abdulqodir Muhiddinov, Sdriddin Ayniy

Abdurahmon Sa’diy

1909-yil dekabrda jadidlар Buxoroda „Tarbiyai atfol“ („Bolalar tarbiyasi“) maxfiy jamiyatini tuzishdi (asoschilari: Abdulvohid Burhonov, Homidxo’ja Mehriy, Ahmadjon Hamdiy, Mukammil Burhonov, Hoji Rafe). Bu jamiyat turkistonlik va

buxorolik yoshlarni Istanbulbuldagi „Buxoro ta'mimi maorif jamiyati“ bo'limiga o'qishga jo'natdi. Xorijdagi ta'lim yoshlar dunyoqarashida tubdan burilish yasadi. Jadidchilik Buxoro va Turkistonda bir vaqtda boshlangan bo'lsa ham, amirlikdagi og'ir muhit uning taraqqiyotini tezlashtirdi. 1910-yildan boshlab Buxoroda jadidchilik harakati tashkiliy tus oldi va „Tarbiyai atfol“ maxfiy jamiyati asosida partiya tashkil topdi.

20-asr boshlarida Xivada shakllangan jadidchilik bir qadar boshqacharoq tarixiy shart-sharoitda vujudga keldi. U bu yerda asosan ikkita oqimdan iborat edi. Uning o'ng oqimi xonlikda rivojlanayotgan savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini o'ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri Islomxo'ja boshchilik qilgan. Jadidchilikning o'ng oqimi o'z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga keng yo'l ochib berishni maqsad qilib qo'ygan edi. Xivada jadidchilikning so'l oqimi esa mayda sarmoyadorlar, hunarmandlar va xalqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan bo'lib, qozikalon Bobooxun Salimov uning rahbari edi. Ular Xiva xonligida yangi usul mакtabлari tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligini o'stirish maqsadini qo'yishgan edi. 1904-yil „jamiyati xayriya“ tuzilib, uning ko'magi bilan Xiva shahrida dastlabki yangi usul mакtabi ochildi (1904-yil 10-noyabrda). Xiva jadidlari ma'rifiy ishlar bilan kifoyalanib qolmasdan, xon tuzumiga qarshi kurash ham olib bordilar. Birinchi jahon urushigacha Xiva jadidlarining yagona markazi va dasturiy hujjatlari bo'limgan. Biroq jadidchilik harakati Xiva xonligida katta ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib, 1914-yil avgustda u partiya shaklini olgan.

Mahmudxo'ja

Behbudiy, Abduqodir

Shukuriy (Shakuriy), Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Majid Qori Qodiriy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev (Ubaydulla Xo'jayev), Toshpo'latbek Norbo'tabekov (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadriddin Ayniy, Abdulqodir

Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho‘lpon, Is’hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So‘fizoda (Farg‘ona vodiysi), Boltihoji Sultonov, Rahmonberdi Madazimov, Fozilbek Qosimbekov (O‘sh uyezdi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Bobooxun Salimov (Xorazm): Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida ushbu insonlar turardi.

1904–1905-yillardagi rus-yapon urushi, 1905–1907-yillarda bo‘lgan 1-rus inqilobi, 1905–1911-yillardagi Eron inqilobi, 1908-yil Turkiyada bo‘lgan Yosh turklar inqilobi jadidlar dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Jadidlar o‘z gazeta va jurnallari, yangi usul maktablari, turli kutubxona va qiroatxonalar, havaskor teatr truppalari tevaragida to‘planishar edi. Ularning ko‘pchiligi shu davrning ko‘zga ko‘ringan ijodkorlari shoir-u yozuvchilar edi. Ular o‘z asarlari bilan tarixan yangi milliy adabiyot yaratdilar. Adabiyot davr voqealariga hamohang bordi. 1910-yillardayoq ma’rifat va ozodlik g‘oyalari uning markaziy mavzuyiga aylandi. Adabiyotga „millat“ va „vatan“ tushunchalari kirib keldi. Milliy she’rlarga rag‘bat kuchaydi. Yangi zamonaviy dostonchilik maydonga keldi, publitsistika (Behbudi, Fitrat, Munavvarqori, Mirmuhsin) rivojlandi, realistik proza shakllandi. Shuning uchun ham bu davr adabiyoti O‘zbekiston mustaqilligidan keyin milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti deb davrlashtirildi.

Adabiyotdagи bunday uyg‘onish, ayni vaqtida, shu davr madaniy hayotida ham ro‘y berdi. Jadidlar o‘zbek xalqi hayotiga tom ma’nodagi milliy teatrni olib kirdi. Milliy matbaaning vujudga kelishi bilan kitob bosish ishi yo‘lga qo‘yila boshlandi. Yevropa ko‘povozli musiqa san’ati bilan tanishgan jadidlar o‘zbek an’anaviy musiqa uslublarini ham isloh qilishga da’vat etishgan. 1919-yilda Toshkentning Eski shahar qismi (hozirgi „Turon“ kutubxonasi yonidagi binoda) jadidlar tashabbusi bilan Turkiston xalq konservatoriyasining milliy (eski shahar) bo‘limi tashkil etildi. Shu tarzda jadidlar san’at vositasi bilan millat qadrini ko‘tarish, san’atning deyarli barcha turlarini yuksaltirishga intildilar. „O‘zbekiston Respublikasi“

maxsus jildining tegishli bo‘limlariga – *adabiyoti, teatri, musiqasiga* jadidchilikning aksar vakillari yoshlarga dastavval diniy ta’lim bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni o‘qitish masalasini kun tartibiga qo‘ydilar. Ular musulmon maktablarining ta’lim usuli va dasturlarini isloh qilib, yangicha usuldagagi maktablarni ochdilar. Behbudiy, Munavvarqori, Abdulvohid Burhonov, Abdulla Avloniy va boshqalar yangi usul maktablari uchun darsliklar yozib, nashr etishgan. Jadidchilik harakati davomida ularning o‘z matbuoti shakllandi. Jadidlar Toshkentda 1905–1906-yillarda „Taraqqiy“ (muhammadi – Ismoil Obiliy), „Xurshid“ (muhammadi – Munavvarqori), 1907–1908-yillarda „Shuhrat“ (muhammadi – Abdulla Avloniy), „Osiyo“ (muhammadi – Ahmadjon Bektemirov), „Tujjor“ (muhammadi – Saidkarimboy Saidazimboy o‘g‘li), Buxoroda 1912-yilda „Buxoroyi sharif“ (muhammadi – Mirzo Jalol Yusufzoda), „Turon“ (muhammadi – G‘iyos maxsum Husayniy), Samarqandda 1913-yilda „Samarqand“ (muhammadi – Mahmudxo‘ja Behbudiy), Toshkentda „Sadoyi Turkiston“ (muhammadi – Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev), Qo‘qonda „Sadoyi Farg‘ona“ (muhammadi – Obidjon Mahmudov) gazetalari va Samarqandda 1913–1915-yillarda „Oyina“ (muhammadi – Mahmudxo‘ja Behbudiy), Toshkentda 1915-yil „Al-isloh“ (muhammadi – Abdurahmon Sodiq o‘g‘li) jurnallarini nashr qilishdi. Shuningdek, 1917–1918-yillarda Toshkentda „Najot“ (muhammadi – Munavvarqori), „Kengash“ (muhammirlari – Ahmad Zakiy Validiy va Munavvarqori), „Turon“ (muhammirlari – M. Afandizoda, Abdulla Avloniy), „Ulug‘ Turkiston“ (muhammadi – Kabir Bakirov), „Shuroy Islom“ (muhammadi – Abdulla Battol), „Turk so‘zi“ (muhammadi – Temirbek Xudoyorxonov), „Turk eli“ (tahriri yati), Samarqandda „Hurriyat“ (muhammirlari – Mardonqul Shohmuhammadzoda, Akobir Shomansurov, Fitrat), Qo‘qonda „Tirik so‘z“ (muhammadi – Obidjon Mahmudov), „El bayrog‘i“ (muhammadi – Bo‘lat Soliyev) gazetalari va „Kengash“ (muhammadi – Hamza), „Yurt“ (muhammadi – Ashurali Zohiriy) jurnallari chop qilindi. Matbuot millat dilidagi gaplarni o‘z sahifalariga ko‘chirish bilan kifoyalananmay, qanday ishlarni birinchi navbatda amalga oshirish masalasini o‘rtaga qo‘ydi. 1909-yilda Toshkent yosh ziyorilari tomonidan „Jamiyati xayriya“ tashkil etildi. Mahalliy yoshlardan davlat

mahkamalarida, sanoat, tijorat sohasida ishlaydigan mutaxassislar tayyorlash, kambag‘al musulmonlarga madaniy-ma’naviy yordam ko‘rsatish masalasi qo‘yildi. Bu millatning boshqa xalqlar ichiga singib ketmasligi yo‘lida ko‘rilgan tadbirlar edi. Bu davrda jadidlar ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida ko‘rindilar. Xalq ularda o‘z himoyachilarini his etdi. Sirdaryo viloyatidan Peterburgda o‘tadigan Davlat dumasiga a’zolikka saylangan Abduvohidqori Abduraufqoriyevga Toshkent, Chimkent va boshqa joylarning aholisidan 12 moddadan iborat talabnomani Davlat dumasiga topshirish yuklandi. Bu hujjatda ko‘pgina ijtimoiy talablar ko‘rsatilgan edi. Abduvohidqori 1907-yil 20-fevral-3-iyunda Peterburgda Sadri Maqsudiy, Muso Jorilloh, Alimardon To‘pchiboshev kabi musulmon ziyorilari bilan tanishib, musulmon fraksiyasining raisi Biglovga Turkiston xalqi dardini yetkazdi. Biroq Abduvohidqori, oradan ko‘p o‘tmay, qamoqqa olindi va Tulaga surgun qilindi. Shu tarzda, jadidchilik harakati 1906–1916-yillarda o‘zining asosiy yo‘lini belgilab oldi. Jadidlarning nashrlari xalqni yangi davr boshlangani bilan tanishtirar ekan, o‘zligini anglab, uyushishga chakirdi. O‘lka moddiy va ma’naviy boyliklari talanayotganini oshkor qildi. Cho‘lpon she’r va maqolalarida mustamlakachilarning asl qiyofalarini oolib tashladi. Mashhur advokat Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev oliy o‘quv yurtini tashkil etish, soliqlarni tartibga solish, bolalar tarbiyasiga jiddiy e’tibor berish masalasini bayon qildi. Lev Tolstoy bilan fikrlashish chog‘ida mashhur yozuvchini yon berishga majbur etgan Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev chor hukumati ma’murlarining poraxo‘rliги va zolimligini fosh etib, ayrimlarini davlat ishidan chetlatishga erishdi. Musulmon aholisiga amaliy tarzda yordam berib, mavjud hokimiyat qonun-qoidalarini tushuntira bordi. Jadid matbuoti o‘z vakillarining fikrlarini e’lon qilar ekan, xalqni „har vaqt g‘aflat uyqusidan uyg‘otuvchi millat ongingin ochqichi“ ekanligini namoyon etish bilan birga Turkiston xalqini hur fikrlashga va katta siyosiy kurashga hozirlay oldi. Bu davrda „Erk“, „Turon“, „O‘qituvchilar jamiyati“ kabi uyushmalar paydo bo‘ldi. Munavvarqori aytganidek, „Ularning butun umidi Rossiyyadagi inqilob jarayonida mahalliy aholini milliy, diniy cheklash va jabrlashdan ozod qilish, ularning haququqlarini ovrupoliklar bilan

tenglashtirish, xilma-xil maktab va matbuot ishlari hamda turli-tuman jamiyatlar tashkil etishga keng imkoniyat yaratib berishga qaratilgan edi“. Jadidlar bu davrda „Ozodlik, tenglik va adolat“ shiori ostida ishladilar. Ularning 1916-yil mardikorlikka olish voqeasiga munosabati g‘oyatda e’tiborga molikdir. Mardikorlikka olish – Birinchi jahon urushi ketayotgan joylardagi ishlarga turkistonliklarni jalg qilish oq podshoning 1916-yil 25-iyun farmoniga muvofiq amalga oshirildi. Bu kutilmagan tadbir, birinchidan, 1865-yil shartnomasiga zid edi. Ikkinchidan, general Aleksey Kuropatkinning xulosasiga qaraganda, „Aholi va ma’muriyat turar joydan tashqaridagi ishlarga mutlaqo tayyorlanmagan va bunday shoshilinch amalga oshirilgan tadbir og‘ir tartibsizliklarni keltirib chiqargan“. Aholi uchun ana shunday musibatli paytda jadidlarning ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev („Turkiston mardikorlikka olish qo‘mitasi“ raisi) va millatparvar boy Mirkomilboy Mirmo‘minboyev Rossiya jamoatchiligining e’tiborini bu masalaga jalg etish, farmonni bekor qildirish uchun Peterburgga yo‘l oldilar. Davlat dumasining 1916-yil 13- va 15-dekabr kunlari o‘tgan majlisida Nikolay IIning 25-iyundagi farmoni Rossiya imperiyasining qonunchiligidagi ko‘rsatilgan hollarga zid ravishda qabul qilingani tan olindi. Farmon Dumada muhokama qilingunga qadar iyun—avgust oylarida jadidlar harakati orqali bir necha eshelon to‘xtatib qolindi. Jadidlarning mardikorlarni qaytarishga urinishlari 1917-yil fevral inqilobi boshlanishi bilan to‘la amalga oshdi. Bu hodisa el orasida ularning obro‘sini ko‘tardi. Mazkur holat jadidlar ma’rifatparvarlikdan siyosiy kurashga allaqachon o‘tganliklarini bildirar edi. Turkiston jadidlari chor hukumati istibdodidan qoloq ahvolga tushib qolgan Turkiston mahalliy aholini, jumladan o’sib kelayotgan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy, madaniy-marifiy turmishini, ong-saviyasini ko’tarish, taraqqiy ettirish maqsadida juda katta madaniy ishlarni olib bordilar. Mahmusxoja Behbudiy ta’kidlaganidek, "Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig'a tasavvul (vosita) va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo‘lgan maktabi ibridoiy ila intiboh va islohot jarchisi bo‘lgan milliy matbuot qayratlu yoshlarning harakati maorif parvaronlarini soyasida

vujudga keldi".Jadidlar ta'limoti - o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni o'z ketidan ergashtira oladi.Jadidlar voyaga yetgan yoshlari Turkiston kelajagi, ravnaqi uchun kurashchi bo'lib yetishishi kerakligini uqtirdilar va bunda ular har xil illatlardan xalos bo'lishlarini ta'kidlaydilar. Misol uchun, Mahmudxo'ja Behbudiy yosh yigitchalarni turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan o'quvchilarni turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan o'quvchilarni xabardor qilgan va Samarqandda ruslar tomonidan ochilgan pivo dokonlarini qattiq tanqid ostiga oladi. Uning fikricha, bunday do'konlar masjid va madrasalarning yaqinida bo'lib, bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Mahmudxo'ja Behbudiy barchani kelajak avlodni sog'lom o'stirishga chorlaydi. Sog'lom aqli, bilimli farzandlarimiz o'sib ulg'ayib, o'qib, ilm egallab, Turkistonga xizmat qiluvchi shifokor, xuquqshunos, iqtisodchi va boshqa zamonaviy mutaxasislar yetishib chiqishini o'rzu qilgan.Sog'lom farzandlarni tarbiyalash uchun o'qib-o'rganib ilmli, ma'rifatli, eng asosiysi esa ota-onalar o'z vaqtida farzandlarini zamonaviy fanlarini egallahga yordam berishlarini ta'kidlaganlar. Munavvarqori Abdurashidxonov bolaning ta'lim va tarbiya olishida ota-onaning javobgarligi haqida so'z yuritib, o'z farzandining ma'rifatli bo'lishi uchun qo'llaridan kelgancha harakat qiladigan zotlar mavjudligini ta'kidlagan.Jadidlar ota-onalar o'z farzandlarining tarbiyasi bilan shug'ullanib, ularni maktab va madrasalarga tayyorlab berishlarini ta'kidlaganlar. Maktab va madrasalarda o'qib, ularni tugatib, yoshlar rivojlangan davlatlarning o'quv yurtlarida bilimlarini oshirib, zamonaviy ilmlarni egallahslari kerakligini uqtirganlar. Adabiyotlarda yozilishicha,Behbudiy Bayrut oliy o'quv yurtlari va dorulfununida farang, olomon va ingliz tillarida o'qitilishi, Yevropalik olimlarning u yerda dars berishi, kimyo labaratoriylarining borligi, tibbiyot oliygohlarida jarrohlik xonalarining borligiga havas va e'tiqod qilgan bo'lib, ona-Turkistonning taraqqiyoqtadan naqadar orqada qolganini afsuslar bilan yozadi.Turkistondag'i maorif tizimini isloh qilishni asosiy maqsad qilib olgan jadidlar yoshlarni milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy va siyosiy qaramlikdan chiqish muammolari bilan shug'ullanadilar, zamonaviy bilimga ega kadrlar bo'lishi kerakligini

anglaganlar. Jadidlar xalqning madaniyatdarajasini xalqaro saviyaga ko'tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o'quv maskanlarida o'qitish zarur, deb hisoblaganlar. Yoshlarni chet elda o'qib kelib, o'z yurtiga foydasi tegadiganligi haqida Mahmudxo'ja Behbudiy esa "Oyna" jurnalida quyidagicha yozgan: "To'y va ma'raka oqchasidan bolalarni,,, talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulga va Rossiya dorilfunun va dorulsaltanatlarig'a yuborilib, diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqg'a sa'y qilinsun. Ma'lumki, Munavvarqori Abdurashidxonov ham bu yo'lida jonbozlik ko'rsatgan. U o'zining "Jamiyati Xayriya" nomli yordam tashkiloti "ilk maktablarni bitirgandan so'ngra Turkiya, O'rburg, Ufa va Ozarbayjonga yashirin yuborilgan talabalaraga yordam ishlarini boshqarar edi" 4 Jadid namoyondalari yoshlarga murojaat ham etib, ularni oldinga intilishga, zamonaviy bilimlarni egallashga va umuman, ravnaq etishga chorlaganlar. Shu o'rinda jadidlarning yoshlarga murojaatiga e'tibor qilaylik: "Ey, g'ayratlik yoshlar! Bir-biringiz ila ittifoq etub, jamiyatlar barpo qilub,.....millat yo'lida xizmat etingiz. Millat va xalq sizdan hurmatva yaxshilik talab etadur, nafsoniyat va g'urur emas..... muhtaram yoshlar! Zamon siznikidir. Balki butun sharingiz va millatingiz ila taraqqiy qilursiz". Tarixdan ibrat olib yashash, tarix haqiqatlarini bilish kishiga quvvat beradi, uni hayot haqiqati bilan qurollantiradi. Tarixni yozishda hech qachon o'ng tomonga ham, chap tomonga ham og'masdan, faqat haqiqat vaadolat nuqtai nazaridan yo'l tutilishi kerak. Soxta tarix bamisoli og'u kabi insonni zaharlaydi, uning ong-u dunyoqarashini chalg'itadi. Eski tuzum davrida biz o'z tariximizni bilmas edik. Ko'zimiz bamisoli ko'r edi. Butun olam yuksak hurmat va ehtirom bilan tilga oladigan buyuk ajdodlarimizni tanimas edig-u, soxta "dohiy"lar hayotini - qachon, qayerda tug'ilgan, nima karomatlar ko'rsatgan - bilar edik, to'g'rirog'i, yodlab olgan edik. Ularni bobomiz, otamiz, deb sig'inar edik. Bu, aynan istibdod va qullik davri edi. Nafaqat moddiy jihatdan nochor edik, eng yomoni, or-nomusimiz toptalgan, qadriyat va an'analarimiz oyoqosti qilingan edi. Bir so'z bilan aytganda, qornimizga emas, qadrimizga yig'laydigan bir davr edi. O'zlikni anglash degani - bu o'z tariximizni, ming-ming yillikan'analarimizni bilish degani. Agarki har qaysi odam kechagi kunni yaxshi

biladigan bo'lsa, hech qachon avvalgi xatosini yana takrorlamaydi.O'zingiz eslang, bir vaqtlar, kommunistik mafkura zamonida milliy urf- odatlar, an'analarni rivojlantirish u yoqda tursin, hatto janozaga borish mumkin emas edi. Qarang, qanday og'ir zamon edi! Bu haqiqatni bolalarimizga to'g'ri tushuntirib bersak, tarix bilan, haqiqat bilan qurollanib olsak, hayotimizni shunday to'g'ri yo'lga qo'yamizki, uning aniq manzillari barchaga ayon bo'ladi, butun xalqimizga kuch-g'ayrat bag'ishlab turadi. Bu - erkin, ozod, tinch va barqaror, obodva farovon hayot demakdir. Yosh avlodning mактабдаги tarbiyasiga ham alohida e'tibor berish kerakdir, degan g'oyga ham jadidlar alohida e'tibor bergenlar. Chunki, jadidlar yosh avlodni ozodlik, istiqlol, mustaqillik uchun kurashganlar, Vatanning kelajagi, ravnaqi deb qaraydilar. Shuning uchun ham ular bolalar va Vatan taqdiri masalasiga alohida e'tibor beradilar. Shuni ta'kidlash kerakki, jadidlar o'z maktablari orqali yosh avlodga faqat milliy ruhinigina emas, balki umuminsoniy qadriyat, baynalminallik, Vatan ravnaqi, go'zalligini ham singdirishga harakat qilganlar. Ular, bolalar, yoshlartarbiyasi uchun bиргина mакtab emas, balki ularning o'zlari mustaqil ravishda zamon va dunyo voqealari bi;lан tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvoldidan, kundalik hayotdan ogoh bo'lmoq kerakligini tadbiq etgандir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg'onishda va ravnaqida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy yo'l bilan yechish yo'llarini jadidlar o'z maqola va asarlarida ko'rsatganlar. Yoshlarni o'qishga, bilim olish va ishlab chiqarishjarayoniga jalb etish, madaniy-ma'naviy saviyatini yuksaltirishga chorlaydi. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon, mutaxasislari, madaniyatarboblari yetishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonganlar. Chunki jadidlarning o'zlari ham yosh bo'lganliklari uchun mahalliy yoshlarning muammolari, fikr-g'oyalari turli voqealarga munosabati ularga juda yaqin va tushunarli edi. Jadidlar faoliyatida madaniyatga, ma'rifatparvarlikka, yangilikka, taraqqiyotga intilish, yoshlarni, butun

xalq ommasini shunga da'vat etish g'oyalari ularning umrlari oxirigacha yetakchi fikr bo'lib qoldi. Har qanday og'ir sharoitda ular o'z qarashlarini o'zgartirmadilar. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy faoliyatlarini tahlil qilib va ularning asr boshidagi g'oyaviy qarashlarini kelib chiqqan holda shuni aytishimiz o'rinniki, jadidlar Turkiston xalqlarini savodsizlik, qullik, qashshoqlikdan chor hukumatimustamlakachiligidan qutqarishga bel bog'laganlar va shu yo'lida yoshlar asosiy kuch bo'lganligini tushunib, ularning on-saviyasini oshirish uchun ko'p sa'y-harakatlar qilganlar. Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o'rin egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi jadidlarning fikrlari bugungi mustaqil O'zbekistonda namoyon bo'lib turmoqda.

Manbalar:

1. Ahmedov, Sirojiddin; Rajabov, Qahramon (2000-2005). "Jadidchilik". *O'zbekiston milliy ensiklopediyasi*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. "Jadidizm". *Ensiklopedik lug'at. 1*. Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. 1988. p. 271.
3. "Jadidizm". *O'zbek sovet ensiklopediyasi. 4*. Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. 1973. 278-279 b.
4. Oblomurodov N, Hazratqulov A va boshqalar. *O'zbekiston tarixi.(o'quv qo'llanma)*T.2011
5. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.T:O'zbekiston.1999.B.385
6. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. Oyna-1914. 41-son
7. M.Abdurashidxonov. Xotiralarimdan(Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq-2001. B108-109